

## O'ZBEKISTONDA PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA MEHMONXONALARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Ochilov Akram Odilovich**

*QarshiDU Iqtisodiyot kafedrasi professori, i.f.d.*

**Shaymanova Nigora Yusupovna**

*QarshiDU magistranti*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

Covid-19, pandemiya, mehmonxona, joylashtirish vositasi, turistlar soni, PEST tahlil, omil.

### Annotatsiya

Maqolada dunyoda Covid-19 pandemiyasi va uning iqtisodiy ta'siri, uni yo'nalshatishga O'zbekistonda belgilangan chora-tadbirlar yoritilgan. O'zbekistonda mehmonxonalarni rivojlantirishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha PEST tahlil ishlab chiqilib, u bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** Bugungi kunda turizm sohasi ko'plab mamlakatlarning iqtisodiyoti tarkibida katta ulushga ega bo'lgan, tez o'sib boruvchi va ish bilan bandlik darajasi yuqori bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasida katta ulushga ega davlatlar bu soha yordamida boshqa tarmoqlarda mavjud bo'lgan muammolar (yo'l infratuzilmasi, aloqa, maishiy xizmat va h.k.)ni hal etishda drayver tarmoq sifatida foydalanishni jahon amaliyoti isbotlab bergan edi.

Biroq, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sabab dunyoning ko'plab mamlakatlarida, iqtisodiyotning ko'p sohalarida, shu qatori turizm va unga yondosh sohalarga katta zarar yetkazdi. Turizm va sayohat umum hisobda deyarli 4,5 trillion dollar zarar ko'rdi va 2020 yil yakuni bo'yicha 4,7 trillion AQSH dollariga yetdi, Dunyo yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi 2019-yilga nisbatan 49,1 foizga kamaydi. 2020-yilda 62 million ish o'rni yo'qolib, 18,5 foizga pasaydi va bu sohada 2019-yildagi 334 millionga nisbatan bor-yo'g'i 272 million kishi ish bilan ta'minlandi. Hozirda ko'plab ish o'rinlari davlatlar tomonidan asrab qolinishiga harakat qilinayotganligiga qaramasdan, COVID-19 bilan bog'liq vaziyat o'zgarib, kelajakda ish o'rinlarini yo'qotish xavfi saqlanib qoladi [7].

Shu nuqtayi nazardan, turizm sohasini saqlab qolish uchun, unda kuzatilayotgan inqrozlarni oldini olish maqsadida O'zbekistonda ham katta qamrovdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6002-sonli qarorida Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri oqibatida eng ko'p zarar ko'rgan va ko'rayotgan turizm hamda unga bevosita bog'liq bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, yuz minglab

ish o'rinlari va malakali mutaxassislarni saqlab qolish, ularning daromadlarini ushlab turish, shuningdek, mamlakatda sanitariya-epideomologik vaziyat yaxshilanishiga qarab turizm sohasini jadal qayta tiklash kabi vazifalar belgilab berilgan[2]. Turizm sohasiga oid keyingi qabul qilingan har qaysi normativ-huquqiy hujjatlar Pandemiyaning zararini kamaytirish va turistlar oqimini oshirishga qaratilgan.


Turizm sohasi tarkibida mavjud tarmoqlarning imkoniyatlarini saqlab qolish va inqroz holatiga uchramasligini ta'minlash uchun har bir tarmoqni alohida o'rganish zarur. Shunday ekan, joylashtirish xizmatining muhim bo'g'ini bo'lgan mehmonxonalar va ularning faoliyatini tahlil qilish hamda yuzaga kelgan inqroz holatidan chiqish yo'llariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqotning metodologiyasi va natijalari.** Tadqiqotda dunyo va O'zbekistonda Covid-19 pandemiyasi sababli yuzaga kelgan inqroz va uning iqtisodiy mazmuni tahlil qilindi.

Tizimli tahlil qilishda 2016-2021 yillardagi statistik ma'lumotlar qo'llanildi. Statistik manba sifatida, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlaridan foydalanildi.

O'zbekistonda mehmonxonalar faoliyatini yuritish bo'yicha PEST tahlil ishlab chiqildi va bu bo'yicha sohaga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi.

**Tahlil.** O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar sonini tahlil qiladigan bo'lsak yuzaga kelgan Pandemiya holati mamlakatimizga tashrif buyurishi kerak bo'lgan turistlar sonining keskin kamayishiga sabab bo'ldi. Shu davrga qadar turistlar sonida barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa, Pandemiya keyin esa keskin pasayish namoyon bo'ldi (1-chizma).



**1-chizma. O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar soni(ming kishi)<sup>1</sup>**

Biroq, "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida esa 2021-yilda mamlakatimizga 6,5 mln.dan ko'p turistlarning tashrifi kutilgan edi (amalda esa 1,8 mln.dan ortiq) [1]. Yuzaga kelgan holatni yumshatish uchun hamda turizm sohasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish eng muhimi amaliy chora tadbirlar natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2019 yil yakuni bo'yicha - 2,6%) va 2026 yil yakuniga qadar xorijiy turistlar sonini 9 milliongacha yetkaziladi, shu jumladan, uzoq xorijdan - 2 million turist jalb qilinishi rejalashtirilgan.


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasini rivojlantirishda respublikada mavjud turizm industriyasining asosiy tarmoqlari (joylashtirish, ovqatlantirish, transport, sayr tomosha va h.k.) hamda turistik infratuzilmaning imkoniyatlarini oshirish kerak bo'ladi [4].

Joylashtirish va mehmonxonalar tizimi turizm sohasi uchun eng muhim tarmoqlardan biri sanaladi. Har qaysi tashrif buyuruvchi turist tunab qolish maqsadida ma'lum bir joylashtirish vositasiga murojaat etadi. Bu esa safar xarajatlari tarkibida katta ulushni egallaydi (2-chizma).

Pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasini rivojlantirishda respublikada mavjud turizm industriyasining asosiy tarmoqlari (joylashtirish, ovqatlantirish, transport, sayr tomosha va h.k.) hamda turistik infratuzilmaning imkoniyatlarini oshirish kerak bo'ladi[4].

Joylashtirish va mehmonxonalar tizimi turizm sohasi uchun eng muhim tarmoqlardan biri sanaladi. Har qaysi tashrif buyuruvchi turist tunab qolish maqsadida ma'lum bir joylashtirish vositasiga murojaat etadi. Bu esa safar xarajatlari tarkibida katta ulushni egallaydi (2-chizma).



**2-chizma. Turistik safar xarajatlari ulushi<sup>2</sup>**

Chizma ma'lumotlariga ko'ra, turistning asosiy xarajati joylashtirish (deyarli 46% i) va transport xarajatlari (26 % i)ga to'g'ri keladi. Tunab qolishlar sonining qanchalik ko'p bo'lishi, mehmonxona yoki shu kabi tarkibiy bo'g'inda firma faoliyati uchun xarajatlar miqdorining ko'p bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mehmonxonalarda tashkil etiladigan qo'shimcha xizmatlar ham ulushlarning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mehmonxonalar faoliyatini tashkil etish va ularni rivojlantirish uzoq muddatli tadbirkorlik faoliyatidir. Turizm va mehmonxona biznesi bo'yicha faoliyat yurituvchi subyektlar turizm va mehmonxona biznesi tadbirkori sanaladi[3]. Tadbirkorlikni va shu jumladan mehmonxona biznesini rivojlantirishda ham iqtisodchilar bir qancha analizlarni taklif qilishadi. Quyida O'zbekiston misolida mehmonxonalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha PEST<sup>3</sup> tahlil berilgan bo'lib, unda sohaga bevosita va bilvosita ta'sir qiladigan omillar keltirilgan.

<sup>2</sup> O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanamsi

<sup>3</sup> PEST – bu marketing dastagi bo'lib, sohaga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhitning Siyosiy (Political), iqtisodiy (Economical), ijtimoiy (Social) va texnologik (Technological) jihatlarini aniqlashga qaratilgan

**Siyosiy omillar:**

- Mamlakatdagi siyosiy vaziyat;
- Biznes va sanoatga davlat ta'sirining darajasi;
- Sanoatda korrupsiya darajasi;
- Ma'muriy to'siqlarning mavjudligi;
- So'ngi 5 yil ichida eng katta siyosiy o'zgarishlar;
- Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab qo'vvatlanishi.

**Iqtisodiy omillar:**

- ✓ Mamlakat iqtisodiyoti va sohasining o'sish sur'atlari;
- ✓ Kredit uchun foiz stavkalari;
- ✓ Valyuta kursi;
- ✓ Inflyatsiya darajasi va aholining real daromadlari;
- ✓ Investitsiya va soliqlar;
- ✓ Keying 5 yil ichida iqtisodiyotdagi eng katta o'zgarishlar.

**Ijtimoiy- demografik omillar:**

- Aholi soni;
- Aholini dam olishga bo'lgan darajasi;
- Madaniy muhit, qadriyatlar.

**Texnologik omillar:**

- ✓ Texnologiyalarni bozor rivojlanishiga qo'shgan hissasi;
- ✓ Yangi axborot texnologiyalari; avtomatlashtirish, muayyan tartib-qoidalar, yoki ish joylarini robotlashtirish imkoniyatlari;
- ✓ Internet va mobil qurilmalardan foydalanish, va rivojlantirish;
- ✓ Mehmonxona tomonidan ishlatiladigan yangi uskunalarning standartlari;

O'zbekistonda mehmonxonalar faoliyati nafaqat ichki bozorga, balki tashqi bozorga ham qaratilgan. Shu sababli, sohani rivojlantirish uchun yuqorida keltirib o'tilgan omillarni va shu bilan birga biznesni rivojiga hissa qo'shadigan va ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni tanlab, ularni tahlil qilish talab etiladi

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni yoza olamizki, O'zbekistonda mehmonxona xo'jaligining rivojlanish holati tahlili bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirilmoqda. Bu esa mehmonxona xo'jaligi sohasida band bo'lgan kishilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, mehmonxonalarda mijozlarga xizmat ko'rsatish saviyasi, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasi ham izchil ravishda oshirib borilmoqda[5]. 2020-yilda yuzaga kelgan Covid-19 Pandemiyasi va uning asoratlari bugungi kunda ham sezilmoqda. Hukumat tomonidan xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini qo'llab quvvatlash va ichki turizmning o'rnini oshirish orqali mehmonxonalar faoliyatini barqarorligini ta'minlashni yo'lga qo'ygan. Hozirgi vaziyatdan kelib chiqib, mehmonxona biznesining imkoniyatlari samaradorligini oshirishda:

- xorijiy tajribalar asosida mehmonxona xizmatlarini amalga oshirishni yo'lga qo'yish. Bu Pandemiya sababli faoliyati qisman cheklangan yoki to'xtatilgan xorijiy mehmonxonalar faoliyatini

o'rganish, ularning ishlash tartibi bo'yicha mahalliy mehmonxonalar faoliyatini yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi;

- bayram va dam olish kunlari munosabati bilan chegirmalar tashkil etish hamda doimiy ravishda reklama qilib borishni amalga oshirish. Bu orqali bo'sh turgan xonalarni to'ldirish va mehmonxona faoliyatini yuritishni ta'minlashni nazarda tutadi;
- hukumat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan foydalanish, yirik tashkilot va firmalar bilan hamkorlik shartnomalari tuzish (ularning mehmonxonalardan foydalangani uchun ma'lum chegirmalar taqdim etishni yo'lga qo'yish va h.k.)

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli farmoni//[https://lex.uz/ru/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019 %2000](https://lex.uz/ru/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019%2000)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6002-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/-4831118?ONDATE=29.05.2020%2000>
3. Tuxliyev I.S., Raximov Z.O. Turizm xizmatlar bozori. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2018. 316 b.
4. М. Джумаева. "Стратегия Узбекистана по поддержке туризма при Covid-19". //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021-yil. 396-402 b.
5. M. Aliyeva, M. Xamidova. "Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda mehmonxona xizmatlarining ahamiyati". //Iqtisodiyot va ta'lim. 2021-yil 2-son 213-215 b.
6. <https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti
7. <https://wttc.org/Research/Economic-Impact>
8. <https://tourlib.net>